Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish	904
Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Gazibekova Gulavza Ergashovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
Murodov Akmal Djayliboyevich	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	

Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari	1091
Adizova Nigora Baxtiyorovna	
Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida)	1096
Almuratova Gulbaxor Mansur qizi	
Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli	1100
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili	1106
Axadova Mahliyo Xalimovna	
Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students..	1109
Bakhtiyor Suvonkulov	
Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati	1113
Daminova Shoxista Farxodovna	
Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir	1117
Dilmurod Alimov	
Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari	1121
Ergashov Ma'murjon Mominjonovich	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1125
G. Sh. Tursunova	
6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar	1130
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	
Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish	1138
Inadullayeva Sevara Qahramonovna	
Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar	1141
Isabayeva Asida Yusufjonovna	
Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari.....	1146
Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna	
Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida.....	1149
Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna	
Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....	1155
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich	
Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
N. Sh. Djumaniyazova	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
Nazarova Mohinur Atxam qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
Nishonova Durdona Olimjon qizi	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
Nuriddinova Gulnigor Taxirjanovna	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
Otahanova Manzura G'ofurovna	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
Qurbonova Asal Dilshod qizi	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
Safarova Madina Azamat qizi	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
Sherov Dilshod Reyimberganovich	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	



TALABALARDA DIVERGENT TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Adizova Nigora Baxtiyorovna

Buxoro davlat pedagogika instituti professori
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning divergent tafakkurini shakllantirish metodikasi – ularni mustaqil va kreativ fikrlashga, o'rganilayotgan masalalarning mohiyatini chuqur anglashga o'rgatadi hamda ularning dunyoqarashini shakllantirishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: divergent, intellektual, kontsepsiya, identifikatsiya, diqqat, idrok, assotsiatsiyalar jarayoni, tafakkur, assotsiatsiya, motiv, faoliyat, konvergentsiya, reproduktiv, ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik.

Abstract: This article presents a methodology for developing divergent thinking in students, which teaches students to think independently, creatively, to understand more deeply the essence of the issues being studied, and has an effective influence on the formation of their worldview.

Key words: divergent, intellectual, concept, identification, attention, perception, associative process, thinking, association, motive, activity, convergence, reproductive, creative thinking, independent, heuristic.

Аннотация: В данной статье представлена методика формирования дивергентного мышления у студентов, которая учит студентов мыслить самостоятельно, творчески, глубже понимать суть изучаемых вопросов и оказывает эффективное влияние на формирование их мировоззрения.

Ключевые слова: дивергентное, интеллектуальное, понятие, идентификация, внимание, восприятие, ассоциативный процесс, мышление, ассоциация, мотив, деятельность, конвергенция, репродуктивное, творческое мышление, самостоятельное, эвристическое.

KIRISH

Ta'limning turli darajalarida amalga oshiriladigan jarayonning maqsadi, vazifalari va mazmuni har doim jamiyatning hozirgi hamda kelajakdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ilmiy, texnikaviy va ijtimoiy-madaniy sohalarida sodir bo'layotgan global hamda milliy miqyosdagi o'zgarishlardan qat'i nazar, oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri – yuqori darajadagi ma'naviy va axloqiy madaniyatga ega, intellektual hamda jismonan rivojlangan, kasbiy o'sish va shaxsiy taraqqiyot qobiliyatiga ega bo'lgan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdir.

So'nggi yillarda talabalarning moslashuvchan va samarali fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tez o'zgaruvchan sharoitlarda qaror qabul qilish malakasini oshirish hamda berilgan cheklovlar ostida muqobil, nostandart g'oyalarni topish zarurati tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu jarayonda divergent deb nomlanuvchi ko'p o'lchovli, chiziqli bo'lmagan, turli fikrlarni shakllantirishga asoslangan tafakkur konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning kreativ va divergent tafakkur qobiliyatlarini o'rganishdagi ilk konseptual yondashuvlar J. P. Guilfordning intellekt tuzilishi nazariyasiga asoslanadi. U divergent fikrlashni kognitiv qobiliyatlarning muhim elementi sifatida ko'rsatgan. Guilfordning ishlari pedagogik amaliyot uchun asosiy imkoniyatlarni ochib bergan va o'quv jarayonida turli xil ijodiy vazifalarni kiritish zaruratini ta'kidlagan.

Divergent tafakkurni baholash va amaliy o'qitish modellari E. P. Torrance tadqiqotlari orqali keng tatbiq topdi. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan testlar (TTCT) o'quvchilarning o'ylashdagi erkinlik, original fikrlar ishlab chiqarish va elaboratsiya kabi komponentlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu testlar o'qituvchilarga mashg'ulotlarni aniq yo'naltirish imkonini beradi. TTCT bilan bog'liq normativ va texnik yo'riqnomalar

maktab amaliyotida divergent fikrlashni o'lchash va rivojlantirish bo'yicha keng qo'llaniladigan vosita hisoblanadi.

Kreativ pedagogika usullarini sinf darajasida tatbiq etishdan kelib chiqadigan amaliy tavsiyalar Arthur J. Cropley va boshqa o'qituvchilik tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan. Ular o'quv muhitining ochiqligi, baholash va rag'batlantirish tizimlari hamda vazifalarning ochiq-oxirli (open-ended) bo'lishi divergent fikrlashni rag'batlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Shu nuqtayi nazardan, dars rejalashtirishda muammoga yo'naltirilgan topshiriqlar, loyiha asosida o'qitish va guruhli muhokamalar muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Psixologik va sotsiokultural omillarni aniqlovchi tadqiqotlar kreativlikni faqat individual salohiyat sifatida emas, balki ijtimoiy-motivatsion kontekst orqali ham tushunishni taklif etadi. Teresa Amabile ichki motivatsiya va ijtimoiy muhitning ijodkorlikka ta'siri ustida to'xtalgan bo'lsa, Mihaly Csikszentmihalyi ijodiy ish jarayonidagi "flow" holatini hamda ijodkor shaxs va ijtimoiy tizim o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilgan. Ushbu yondashuvlar o'qituvchilarga shaxsiy rag'batni qo'llab-quvvatlash, sinf muhitini "kreativ iqlim"ga aylantirish va o'quv jarayonini baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar beradi.

Ta'lim psixologiyasida divergent tafakkurni jadallashtirishga oid amaliy chora-tadbirlar hamda baholashning cheklovlari ham muhokama qilingan. Plucker va uning hamkasblari pedagogik psixologlar orasida kreativlikni o'rganish miqyosining nisbatan pastligini ta'kidlab, nazariy aniqlik va sinf amaliyotiga mos baholash vositalarining zarurligini qayd etadilar. Shuningdek, Paul Black va Dylan Wiliamning baholash va o'qitish amaliyotiga oid ishlari formatif baholash usullarini joriy etish orqali o'quvchilarning o'ylash strategiyalarini rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatadi. Bu esa divergent vazifalarni sinf ichida samarali qayta ishlash va o'quvchilarning metakognitiv nazoratini oshirish uchun muhim amaliy platforma sifatida xizmat qiladi.

Metakognitsiya va o'z-o'zini monitoring qilishga oid tadqiqotlar (Flavell va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, o'z fikr jarayonini anglash va uni boshqarish qobiliyati talabalarda yangi, ko'p variantli yechimlarni topishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois pedagogik amaliyotda divergent topshiriqlar bilan birga metakognitiv strategiyalarni o'rgatish – fikrni rejalashtirish, fikrlarni baholash, variantlarni sinash – samarali usul hisoblanadi.

Nazariy va amaliy manbalarni integratsiya qilgan holda, adabiyot divergent tafakkurni rivojlantirishda bir nechta muhim yo'nalishni taklif qiladi: o'quv muhitini ochiq va qo'llab-quvvatlovchi tarzda tashkil etish, baholashni formatif shaklda qayta yo'lga qo'yish, metakognitiv ko'nikmalarni o'rgatish hamda aniq divergent treninqlarni (TTCTga asoslangan mashqlar, brainstorming va analogiya mashqlari, loyiha asosida o'qitish) muntazam joriy etish. Shu bilan birga, tadqiqotlar turli pedagogik kontekstlarda baholash vositalarini moslashtirish va o'qituvchilarni divergent fikrlashni o'rgatish bo'yicha malaka darajasini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar empirik kuzatuv, so'rovnoma va test metodlari orqali yig'ildi. O'quvchilarning divergent tafakkur darajasi Torrance testlari asosida baholandi, natijalar esa statistik tahlil va taqqoslama metodlar yordamida qayta ishlanib, o'qitish jarayonidagi kreativ faoliyat ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlashga yo'naltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bir qator olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, divergent tafakkur tezlik (vaqt birligi uchun maksimal g'oyalar soni), egiluvchanlik (shakllangan g'oyalar xilma-xilligi doirasi), o'ziga xoslik (nostandart, noan'anaviy g'oyalar darajasi) va aniqlik (g'oyalarning to'liqligi va mantiqiy to'g'riligi) mezonlarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan fikrlash usulidir. Shu sababli o'quv jarayoni ijodkorlik, qiziqish, shaxsning o'zini namoyon etish istagi, materialni yangicha talqin qilish hamda natijalarni baholashning o'ziga xos mezonlari orqali samaraliroq kechadi.

Talabalar orasida tafakkur tushunchasi ko'pincha majoziy ma'noda talqin etiladi. Tarbiyaviy vazifalarni shakllantirish, avvalo, og'zaki nizolar yoki tayyor javoblar orqali emas, balki tug'ilayotgan konsepsiyalarning hissiy asosini ta'minlaydigan obyektiv va o'yin shaklidagi harakatlar orqali amalga oshirilishi lozim.

Masalalar va muammolarni yechish jarayonida talabalarning narsalarga bo'lgan qiziqishi ortadi, mustaqillik, erkinlik, maqsadga intilish va mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi. Natijada shaxsning individual tarbiyasi kuchayadi. Talabalar o'z shahri yoki qishlog'ining hayoti, ishlab chiqarish amaliyoti va kishilar mehnati bilan tanishadilar.

Bunda boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarda mavjud muammolarni hal etish usullaridan samarali foydalanish mumkin. Quyida topshiriqlarni bajarish jarayonini boshlang'ich ta'lim fanlari misolida o'rgatish va qo'llashga doir namunalar keltiriladi.



Berilgan muammoning bir nechta yechimini topishga oid mashq va topshiriqlarni dastlab ona tili fani misolida ko'rib chiqamiz.

1. Chizmani kuzating va unga mos gaplar tuzib yozing ^[91].

1. ~~~~~ , ~~~~~ , ~~~~~ =~~~~ .
2. ~~~~~ va ~~~~~ =~~~~ .

Ushbu mashqni bajarishda biz hozirgi kunga qadar, ya'ni ko'pincha an'anaviy ta'limda, chizmaga mos bitta gapni talabalar bilan birga tuzamiz va yozamiz. Masalan: 1-chizmaga mos gap – *Kuzatuvni, tahlilni, o'rganishni amalga oshirdik*. 2-chizmaga mos gap esa – *Sayohatchilar daryoga va o'rmonga borishdi*. Bu gaplar odatda o'qituvchi tomonidan tuziladi, talabalar esa ularni faqat yozib olish bilan cheklanadi. Natijada talabalarning turli xil fikrlash usullari va ijodiy yondashuvlaridan foydalanilmaydi hamda ta'lim jarayoni yuqori samaradorlik va sifat ko'rsatkichlariga erishmagan holda tashkil etiladi.

Agar topshiriqni biroz boshqacharoq, noan'anaviy tarzda o'tkazsak, ya'ni chizmaga mos gaplarni talabalar o'zlari tuzishlari va tahlil qilib berishlari talab etilsa, natija mutlaqo boshqacha bo'ladi. Bu holda sinfdagi har bir talaba jarayonga faol jalb qilinadi; ular fikr yuritishga, izlanishga va ijod qilishga majbur bo'ladilar. Eng muhimi, bitta topshiriqning bir nechta alternativ yechimlari mavjudligini amalda ko'rishadi.

Xuddi shu topshiriqni endi ikkinchi usulda bajarib ko'ramiz. Talabalarga berilgan chizmalarga qarab gaplar tuzish topshirig'i beriladi. Har bir chizmaga nisbatan bir nechta yechim topish talab qilinadi.

Birinchi chizmada uyushgan ikkinchi darajali bo'laklar va kesim ko'rsatilgan. Chizmaga mos quyidagi gaplar talabalar tomonidan tuziladi:

1. *Katta, shirin, qizil olmalar.*
2. *Sho'x, chiroyli, aqlli qizlar.*
3. *Bilim, ko'nikma, malakani egallaymiz.*
4. *Ustozdan, kitobdan, do'stlardan o'rganamiz.*

Ikkinchi chizmada esa ega, bog'lovchi yordamida bog'langan ikkita ikkinchi darajali bo'lak va kesim ifodalangan. Chizmaga mos, talabalar tomonidan aytilgan quyidagi gaplarni namuna sifatida keltiramiz:

1. *Olimjon she'r va ertak o'qidi.*
2. *Burgut vodiya va tog'da yashaydi.*
3. *Ustoz ta'lim va tarbiya beradi.*
4. *Laylaklar uzoq va ko'p uchadi.*

Har bir talaba bittadan yoki bir nechtdan gap tuzishi mumkin. Tuzilgan har bir gapdagi uyushgan ikkinchi darajali bo'laklar va kesim talabaning o'zi tomonidan tahlil qilinadi. Bu esa talabalarning og'zaki nutqini rivojlantiradi, o'z fikrini aniq ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi hamda eng muhimi – chizmaga mos bir nechta gap tuzish mumkinligini o'z tajribasida anglab yetishlariga yordam beradi. Natijada talabalarda divergent fikrlash ko'nikmasi shakllanadi va mustahkamlanadi.

2. Chizmani kuzating. So'roqlarga mos so'zlar topib, gaplar tuzing.



Ushbu mashqni bajarishda ham ko'pincha bizga odatiy bo'lgan an'anaviy o'qitish usulidan foydalaniladi. Ya'ni sinfdagi barcha talabalar bilan birgalikda chizmaga mos bo'lgan gapni asosan o'qituvchi tuzadi va uni tahlil qiladi, talabalar esa faqat yozib olish bilan cheklanadi. Agar esa noan'anaviy o'qitish yondashuvlaridan foydalanib, so'roqlarga mos gaplarni talabalar o'zlari tuzishlari topshiriq qilib berilsa, ta'lim samaradorligi ancha yuqori bo'lishi kutiladi.

So'roqlarga mos so'zlar topib, gap tuzishdan oldin talabalarimizga muayyan tushuncha va yo'nalish berish zarur. Bunda, eng avvalo, tuzilajak gapdagi har bir bo'lakning o'rnini aniqlab olish lozim. Ya'ni qaysi gap bo'lagidan keyin qaysi bo'lak kelishini bilish talab etiladi. Shunday qilib, so'zlarni ikkinchi darajali bo'lak, ega, ikkinchi darajali bo'lak va kesim tartibida bir-biriga mantiqan bog'lab joylashtirish zarurligi tushuntiriladi.



Shundan so'ng talabalar topshiriqni bajarishga kirishadilar va quyidagi yechimlarni taklif etishlari mumkin:

1. *Zehnli bolalar bilimlarni o'zlashtiradilar.*
2. *Katta akamlar daraxtni butadilar.*
3. *Pahlavon polvonlar kurashni boshladilar.*
4. *G'ayratli do'stlarim ishni boshlashdi.*
5. *Mehribon onajonim ovqatni pishirdilar.*
6. *Saxiy bog'bonlar mevalarni ulashdilar.*
7. *Uddaburon tadbirkorlar xalqimizni boqadilar.*
8. *Tezkor talabalar testni yechib bo'lishdi.*
9. *Jonkuyar ustozlar tushuntirishni qoyillatadilar.*
10. *Vatanparvar askarlar ona yerimizni qo'riqlaydilar.*

Bu topshiriqni bajarishda ham har bir talaba bittadan yoki bir nechtdan gap tuzishi mumkin. Har bir gap talabaning o'zi tomonidan tahlil qilinadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, topshiriqlarni bunday shaklda bajartirish orqali talabalarning og'zaki nutqi, fikrlash qobiliyati va ijodiy yondashuvi samarali rivojlanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan har bir fan va mavzuda shu kabi turli fikrlashni talab qiladigan muammoli vaziyatlarni tashkil etishlari hamda talabalarni bu muammolarga ijodiy yondashishga jalb etishlari lozim.

Quyida biz boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan turli fanlardagi topshiriqlarni divergent fikrlash usulidan foydalanib, turli yechimlarni topishga o'rgatishga doir namunalardan keltiramiz.

Tarbiya fani misolida

1. Kim bo'lsam ekan ^[135]?

Bu mavzuda biz talabalarga "Kim bo'lsam ekan?" nomli hikoya tuzishlarini topshiriq qilib beramiz. Bunda topshiriqni bajarishda har bir talaba o'zi yoqtirgan kasbni hikoya qiladi. Talabalar o'z hikoyalarini aytish barobarida har bir talaba boshqa o'zi bilmagan kasblar va bilimlarni egallab olishlari mumkin bo'ladi.

Talabalarning hikoyalaridan namunalar:

- **Shifokorlik kasbi.** Shifokor bo'lishni orzu qilgan kishi o'ta ziyrak, hushyor va bilimdon bo'lishi lozim. Chunki bemor hayoti shifokorning qo'lida. Shifokorning birgina xatosi tufayli inson bir umrga nogiron bo'lib qolishi yoki hayoti xavf ostida qolishi mumkin. Men kelajakda eng zo'r shifokor bo'lmoqchiman. Odamlarni sog'salomat qilish, ularning tashvishlarini aritib, xursand qilishdek ulkan baxtni his qilishni juda-juda xohlayman va buning uchun imkoniyatlarimdan yetarlicha foydalanishga harakat qilaman. Inson salomat bo'lsa, o'zi qilmoqchi bo'lgan barcha ishlarni qila oladi va hammaga yaxshilik keltira oladi.
- **O'qituvchilik kasbi.** O'qituvchilik sharaflilik kasblardan biri. Ustoz bo'lishni istagan inson, eng avvalo, bolalarni chin dildan sevishi kerak. O'qituvchi bolalarga ilm-fan sirlarini o'rgatadi, shu bilan birga tarbiya ham beradi. Shuning uchun xalqimiz o'qituvchilarni e'zozlab, "Ustoz otangdek ulug'" deydi. Shu sababli men ham kelajakda o'qituvchi bo'lishni, insonlarga bilim va tarbiya berishni juda xohlayman. Hozirdan ko'p o'qib, o'zim sevgan kasb egasi – o'qituvchi bo'laman.
- **Tadbirkorlik va fermerlik kasbi.** Xalqimiz tadbirkor insonlarni qadrlaydi. Chunki bunday kishilar xalq va Vatan uchun katta manfaat keltiradilar. Bugungi kunda yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlar o'z korxonalarida xalqimiz ehtiyoji va chet mamlakatlarga eksport qilish uchun turli mahsulotlar ishlab chiqarmoqdalar. Shu bilan birga, fermerlik ham olijanob kasblardan biridir. Fermer nafaqat dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishi, balki to'g'ri ish yuritish, hisob-kitob qilish hamda ilm-fanning eng yangi yutuqlaridan xabardor bo'lishi zarur. Shunda uning ishlari yanada rivoj topadi. Men ham kelajakda katta tadbirkor, fermer bo'lishni juda istayman va buning uchun tinmay o'qishga harakat qilaman.



2. Til insonning ham do'sti, ham dushmanidir.

Bu mavzuda talabalardan "Til insonning ham do'sti, ham dushmanidir" nomli hikoya tuzib, mazkur jumlaning mazmunini izohlashlari so'raladi.

Talabalarning izohlaridan namunalar:

- Muomala odobi insonning ko'rkidir. Oilada, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan suhbatda unga qat'iy amal qilish kerak. Kishiga nur, yaxshilik va ezgulik til tufayli keladi. Uni noo'rin qo'llasak, odam boshiga balo bo'lishi mumkin. Buni yaxshi bilib olish zarur. Boshimizga keladigan baxt ham, balo ham tilimiz orqali keladi. Shu sababli til bizga ham do'st, ham dushman bo'lishi mumkin.
- Tildagi har bir so'zning o'ziga yarasha sehri va kuchi bor. Shunday so'zlar borki, ular insonga ruhiy quvvat beradi. "Assalomu alaykum", "marhamat", "iltimos", "kechiring", "rahmat", "xo'p bo'ladi", "labbay", "sog' bo'ling" kabi so'zlarni imkon qadar ko'proq ishlatish kerak.
- Agar biz tilimizni ezgu va chiroyli so'zlar bilan boyitsak, shunchalik qadrlil va obro'li bo'lamiz. Agar unga e'tibor bermasak, til noo'rin ishlatilib, odamga zarar yetkazishi mumkin. Tilning bizga do'st yoki dushman bo'lishi har bir insonning o'ziga, ya'ni uning so'zlash madaniyatiga bog'liq. Agar biz to'g'ri va shirin so'zlasak, til bizga do'st bo'ladi; aksincha, noo'rin ishlatilsak, u dushmanimizga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, divergent tafakkur tushunchasi keng ma'noda muammolarni hal etishning muqobil variantlarini ko'ra olish qobiliyatini aks ettiradi. Divergentlik – muammoni hal etishning bir necha usullarini ko'rish imkonini beradigan fikrlash sifati bo'lib, u shaxsda ijodkorlik va motivatsiya shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Talabalarda divergent tafakkurni muammoli ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish masalasi psixologik va pedagogik adabiyotlarda dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Darsliklarning nazariy va metodik jihatlarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarur. Tahlillar shundan dalolat beradiki, talabalarning divergent tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir olib borilgan izlanishlar asosida muayyan xulosalarga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdinazarova Z.X. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta'siri. Psix. fan. nomz... diss.-Toshkent, 2012.–144b.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. diss. – Toshkent, 2003. –276 b.
3. Gilford Dj. Formirovanie divergentnogo mishleniya u studentov pedagogicheskix spetsial'nostey v usloviyax sovremen-nogo vuza//Vestnik Vostochno-Sibirskoy gosudarstvennoy akademii obrazovaniya. 2012. № 17. S. 20-23.
4. Adizova. N.B. On the problem of scientific and theoretical research on the development of divergent thinking of primary class students. E3S Web of Conferences 431, 09020 (2023) ITSE-2023

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.